

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**ATAMURODOVA GULNORA SHERMURODOVNA**

*ISFT instituti Samarqand filiali filologiya  
va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada boshlang'ich sinflarda talaffuz mashqlarini ishlab chiqishda, savod o'rgatish darslari va o'qish darslari katta ahamiyatga ega. Ona tili darslarida nutqiy malakalarni shakllantiruvchi hamda o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qilishga yo'naltiruvchi mashq va topshiriqlardan tizimli foydalanish*

**Kalit so'zlar:** *adabiy talaffuz, og'zaki nutq, unli va undosh tovushlar, bo'g'in, urg'u, matn bilan ishlash, mashq va topshiriq, meyor, darslik.*

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi tilning barcha imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish o'quvchida ko'nikma va malakalarni hosil qilish mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirishdan iborat. Ona tili darslarida savodxonlikni takomillashtirish va tildan esa mahorat, ustalik bilan foydalanish san'atini amalga oshirish lozim. Maktab ona tili darsligi fonetika, leksikologiya, grammatika, so'z yasalishi morfologiya, sintaksiz, uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi. Buning uchun esa ona tili darslarida talaffuzni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarni takomillashtirish va fonetika bo'limini o'rganish asosiy mezon hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda og'zaki nutqni to'g'ri shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Tilning talaffuz me'yorlarini o'zlashtirish — nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik va kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sanaladi. To'g'ri talaffuz ko'nikmasi o'quvchining so'z boyligi, eshitish qobiliyati, fonematik eshituv va nutqiy nafasatini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchining roli**

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar nutqidagi talaffuz xatolarini aniqlash, ularni to'g'rilash va fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilishga yo'naltiruvchi metodik ishlarni olib borishi zarur. Bu borada quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- **Diktantlar va tovushli o'yinlar;**
- **Audio va video yozuvlar asosida eshituv mashqlari;**
- **So'z va gaplarni takrorlash** orqali artikulyatsion mashqlar;
- **Og'zaki o'yinli topshiriqlar:** “Kim to'g'ri aytdi?”, “Tovushni top”, “So'zni davom ettir” kabi o'yinlar.

To'g'ri talaffuz — bu o'quvchining og'zaki nutq madaniyati, so'z boyligi va eshituv sezgirligini shakllantiruvchi muhim komponentdir. Boshlang'ich sinfda talaffuzni to'g'ri o'rgatish faqat fonetik mashqlar bilan emas, balki interfaol metodlar orqali o'quvchini nutqiy faoliyatga faol jalb etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol usullarni qo'llash: o'quvchilarni faol muloqot jarayoniga jalb etadi; talaffuzni tabiiy, o'yinli shaklda mustahkamlaydi; fonematik eshituvni va intonatsion sezgirlikni rivojlantiradi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik muhitini yaratadi. Shunday qilib, interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan talaffuz mashg'ulotlari o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Maktab yoshidagi bolalar adabiy nutq qoidalariga amal qilishdan ko'ra, ko'proq tez so'zlashni abzal bilishadi. Bu esa so'zlanayotgan nutqning tushunarligi, aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba'zan alohida tovushlar, bo'g'inlar va hatto so'zlar tushib qoladi. Masalan: Nafisa shaharga o'qish va ishlash maqsadida kelgan. Ushbu gapni tovushlar talaffuzi buzilgan, ayrim so'zlar tushib qolgan holatida talaffuz qilinishi Ayniqsa, bu kabi nuqsonlar uzun so'zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko'p uchraydi. O'qituvchining faoliyati o'quvchilarda so'zlarni juda aniq jaranglaydigan ohista nutq sur'atini shakllantirishga yo'naltirishi zarur. O'quvchilarda adabiy talaffuzni rivojlantirishning yana bir usuli intonatsiyadir. Intonatsiya bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, "intono" baland talaffuz qilaman. Tilshunoslikda nutqning ohangi, uning maromiymusiqiy tomoni; tovushning navbatma navbat ko'tarilishi va tushishi; nutqning sintaktik ma'nolaridarak, so'roq, buyruqni ham ifodalaydi. Nutq qaratilgan ob'ektga bo'lgan so'zlovchining munosabati, hissiyoti, so'zdagi intonatsiyada namoyon bo'ladi. Musiqiylik jaranglayotgan nutqning har bir so'zida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga qarab o'zgargani holda unlilar nutqqa ishlov berishni nihoyasiga yetqazadilar. Yozuvda esa intonatsiya, qisman tinish belgilari orqali ifodalanadi. Shaxsiy manfaatingizni o'ylab ish tutmang, har vaqt kattalarning gapiga quloq soling. Bulbul chamanni sevar, Odam-Vatanni. Intonatsiya nutqning stilistik xususiyatlarini farqlashda, uni shakllantirishda ham rol o'ynaydi. Intonatsiyani nutq unsuri sifatida o'rganish 19-asr oxirlaridan boshlangan intonatsiya tufayli fikr tugallangan mazmunga ega bo'ladi. Aytilgan fikr asosiy ma'noni o'zgartirmagan holda qo'shimcha ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Yana bir adabiy talaffuzni shakllantirish uchun xizmat qiluvchi vosita bu nutq tembiri hisoblanadi. Tembr musiqiy tovushning xususiy belgilaridan biri hisoblanadi. Tembr yordamida balandlik va bir xil dinamikdagi tovushlarni farqlash mumkin. Tovushlarning emotsional bo'yoqlari kiradi. Masalan: Oh, naqadar go'zal bu zamin. Seni qara-yu. Badiiy adabiyotda tembr va ritm asarning g'oyaviy estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi, estetik zavq

uyg'otadi. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, uning usul va uslublaridan o'rinli foydalanish ularni o'quvchi ongiga singdirish o'qituvchi oldidagi eng murakkab jarayon hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Atamurodova G.Sh. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. Наука и инновация, 2(20), 33–38. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46652>

2. Atamurodova G.Sh. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TIZIMI. Наука и инновация, 2(20), 33–38. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46652>

3. Atamurodova G.Sh. (2024). BOSHLANG'ICH SINIFDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI HOSIL QILISHDA FONETIK MASHQ VA TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH. Академические исследования в современной науке, 3(29), 5–11. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50256>

4. Atamurodova G.Sh. EDUCATIONAL TASKS THAT DEVELOP THE SKILLS OF CORRECT PRONUNCIATION IN ELEMENTARY GRADES. (2024). International Journal of Advance Scientific Research, 4(06), 107-114. <https://doi.org/10.37547/ijasr-04-06-17>

5. Atamurodova G.Sh. DEVELOPMENT OF LITERARY PRONUNCIATION IN PRIMARY EDUCATION BY TEACHING PUPILS THE CORRECT PRONUNCIATION IN MOTHER TONGUE LESSONS. Scial Journal of Education Humanities and Social Sciences, Vol. 3. 12, (2025) <https://scialjournals.com/index.php/SJEHSS/index>. 109-113.